

**VOLUME-1, ISSUE-5**

**MINTAQADA “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA  
SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI**

*Ermetov Amirbek Ismailovich*

*Xiva shaxar Boxovuz kucha 2 Uy, Mamun NTM*

**Annotatsiya:** Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilayotgan «Barqaror rivojlanish» konsepsiysi dunyo mamlakatlarining asosiy maqsadiga aylangan.XXI asrda barcha davlatlarning yuqori iqtisodiy o‘sishga erishish maqsadi barqaror rivojlanish maqsadi bilan almashdi. Bu, o‘z navbatida, jahon iqtisodiyotning barcha yo‘nalishlari: qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, moliya, energetika, qurulish sohalari barchasi “yashil” tus olishi muhimligini anglatadi. Ushbu maqolada mintaqada “yashil” iqtisodiyotni rivojlanirish va shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** "yashil iqtisodiyot", barqaror rivojlanish, energiyadan samarali foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, populyatsiya.

So’nggi yillar ichida “yashil” iqtisodiyot g’oyasi nafaqat ekologiya iqtisodchilari, balki dunyoda ham keng muhokama qilinadi. Bu borada turli siyosiy forumlarda, davlat rahbarlari, siyosatchi olimlar tomonida bu masalaga ko’p bora to’xtalib kelinayotganligi “yashillashtirish” siyosatiga bo’layotgan jiddiy e’tibor bo’lib hisoblanadi. O’zbekiston so’nggi yillarda yashil iqtisodiyot va ekologiya sohasida muvaffaqiyatlarga erishgan davlatdir. Texnikalar, atrof-muhitni himoya qilish, algoritmik texnologiyalar va chiqindilarni qayta ishlar jarayonlarida faol ishlaydigan mutaxassislar O’zbekistonning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida katta o’rin tutadi. O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini rivojlanirishga e’tibor qaratgan holda, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar, muhandislik va inshootlarni rivojlanirish maqsadida ko’plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan ushbu qarorning qabul qilinishi mamlakatimiz hayotida ijobji o’zgarishlar sodir bo’lishiga sababchi bo’ldi.

Bugungi kunda zamonaviylashgan iqtisodiyot sharoitida insoniyat ehtiyoji ham misli ko’rilmagan tarzda oshib bormoqda. Bundan kelib chiqadiki, ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo’lgan resurslarni olishda tabiatga “murojaat qilish” ham ko’payib bormoqda. “Yashil iqtisodiyot” mana shunday o’zgarishlar kelajak avlod hayotiga salbiy ta’sir qilishini oldini olish va ular uchun ham farovon hayot ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqmoqda. Agarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy

**VOLUME-1, ISSUE-5**

munosabatlarning tabiatga salbiy ta'siri oldi olinmasa, u nafaqat kelajak avlod hayotiga, balki jamiyatning hozirgi sharoitiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Va aksincha, insoniyatning atrof tabiiy muhitga munosabati o'zgarsa, ularda avvalo, ekologik madaniyat rivojlansa, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mahsulotni iste'mol qilish bilan munosabatlar "yashillashtirish" sa'y-harakatlariga moslashsa, albatta, biz va kelajak avlod hayotining ijobiy tarafga o'zgaradi. Ya'ni "Yashil" iqtisodiyot aholi farovonligini ta'minlashdagi va iqtisodiy o'sishda kabi barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtayi nazardan, "O'zbekistonning kadrlar tayyorlash tizimi „yashil“ transformatsiyaga qanchalik tayyor?" degan savol tug'ilishi tabiiy. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish suv resurslaridan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o'rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o'zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi. Xorijlik mutaxassislarining fikriga ko'ra, "yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishning turli sohalarida keng tarqalgan 10 ta ekologik ko'nikma, ya'ni: dizaynerlik, liderlik sifatlari, boshqaruvchilik qobiliyati, energetik, shaharlarni rejalashtirish, landshaft dizayni, muloqot olib borish, chiqindilarni boshqarish, sotib olish va moliyaviy ko'nikmalarga talab katta.

Yashil iqtisodiyot har qanday iqtisod nazariyasi sifatida aniq ta'riflanadi, unga ko'ra iqtisodiyot o'zi yashaydigan ekotizimning tarkibiy qismi hisoblanadi (Lin Margulisdan keyin). Mavzuga yaxlit yondashuv tipik bo'lib, iqtisodiy g'oyalalar ma'lum bir nazariyotchiga qarab har qanday boshqa mavzular bilan aralashib ketadi. Feminizm, postmodernizm, atrof-muhit harakati, tinchlik harakati, Yashil siyosat, yashil anarxizm va globallashuvga qarshi harakat tarafdozları bu atamani asosiy iqtisodiyotdan tashqarida bo'lgan juda boshqacha g'oyalarni tasvirlash uchun ishlatishgan. Ushbu atamaning qo'llanilishi rasmiy ravishda tashkil etilgan va bosh harflar bilan yozilgan *Yashil* atamani noyob va ajralib turuvchi belgi sifatida da'vo qiladigan Yashil partiyalarning siyosiy farqi bilan yanada aniqlashtiriladi. Shunday qilib, odatda yashil iqtisodiyotga o'tishni, biomimikriyani va bioxilma-xillikni to'liqroq hisobga olishni targ'ib qiluvchi „yashil iqtisodchilar“ning bo'sh maktabiga murojaat qilish ma'qul. (Qarang: "Ekotizimlar va biologik xilma-xillik iqtisodiyoti", ayniqsa, ushbu maqsadlarga qaratilgan joriy nufuzli xalqaro ishlar uchun va bularning oddiy odamlar uchun taqdimoti uchun Tabiiy kapital banki.) Ba'zi iqtisodchilar yashil iqtisodiyotni ko'proq tashkil etilgan maktablarning filiali yoki kichik sohasi sifatida ko'rishadi. Masalan, an'anaviy er

**VOLUME-1, ISSUE-5**

tabiiy kapitalga umumlashtirilgan va mehnat va jismoniy kapital bilan ba’zi umumiylardan xususiyatlarga ega bo’lgan klassik iqtisod sifatida qaraladi (chunki daryolar kabi tabiiy kapital aktivlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri kanallar kabi inson tomonidan yaratilgan aktivlar o‘rnini bosadi). Yoki u marksistik iqtisod sifatida qaraladi, tabiat Lumpenproletariatning bir shakli, insoniyat iqtisodiyotiga ortiqcha qiymat beradigan noinsoniy ishchilarining ekspluatatsiya qilinadigan bazasi yoki neoklassik iqtisodning bir tarmog‘i bo‘lib, unda rivojlanish uchun hayot narxi va boshqalar. Rivojlangan davlatlar kuchlar muvozanatini aks ettiruvchi nisbatda barqaror saqlanadi va insoniy bo‘lmagan hayot juda past.

Oxirgi vaqtida xorijda inklyuziv barqaror o‘sish konsepsiysi (inclusive sustainable growth) ancha mashhur bo‘ldi. Uning asosiy qoidalari, shu jumladan iqtisodiyot o‘sishi sur’atlari va keng doiradagi ijtimoiy muammolar hal etilishi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik mavjudligi, shu jumladan jamiyatda yaratilgan daromadlarniadolatli taqsimlash, bunda aholining nochor qatlamlariga alohida e’tibor qaratish to‘g‘risidagi xulosa dastlab XX asr 80-yillarda olimlar tomonidan ishlab chiqildi. “Yashil” iqtisodiyot energiya va resursni tejashga, atmosferaga uglerod chiqarishni kamaytirishga, sof energiyadan foydalanuvchi transportga, energiyaning muqobil manbalariga, organik qishloq xo‘jaligiga, ekodevelopmentga (atrof-muhitga kam ta’sir ko‘rsatgan holda qurilishga), ilg‘or logistikaga asoslanadi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotga tabiatga ziyon yetkazmay rivojlanish va aholining ekologik farovonligini saqlash imkonini beradi, tabiiy kapitalni saqlash va oshirish hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, zaharli moddalar va uglerod chiqarilishini kamaytirdai, bioxilmassillikni kengaytiradi, shuningdek aholi daromadlari va bandligini oshiradi. Ham birlamchi, ham ikkilamchi resurslardan ehtiyyotkor va oqilona foydalanish “yashil iqtisodiyot”ga xos, bunda an’anaviy iste’molga o‘rgangan jamiyat mas’uliyat bilan iste’mol qiluvchi jamiyatga aylanadi. “Yashil iqtisodiyot” modeli inson faoliyati va tabiat hamkorligini normallashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ko’plab xorijiy davlatlardan “yashil iqtisodiyot” borasida tajribalar o’rganilib, “Yashillashtirish” sohasida ko’plab chora-tadbirlari ko’rilishi ekosiyosat doirasida turgan eng muhim dasturul amal masalalardan bo‘lib hisoblanadi. Xususan, mintaqamizdagisi asosiy daryolarning havzasasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg’otmoqda. Bug’lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda “yashil taraqqiyot” borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning

**VOLUME-1, ISSUE-5**

harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Yashil iqtisodiyot bu iqtisodiy tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi sayyoramizning ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib yashil iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lган resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'naliishi tushuniladi. Bunda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Birinchidan, aholining ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrofmuhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim. Ikkinchidan, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'naliislarda ishlarni olib borish. Uchinchidan, atrof muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi. To'rtinchidan, bir tomonidan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlarini cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Beshinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun qancha ishlab chiqarish, qanday ishlab chiqarish, kimga mo'ljallab ishlab chiqarish masalasiga atrofmuhitni asragan holda katta ahamiyat beriladi.

Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, barqaror qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o'zgartirish talab etiladi. Bunda uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanishi kerak: barqaror rivojlanish sohasida Milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik; resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste'mol va ishlab chiqarish; iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlarni kiritish; ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish

**VOLUME-1, ISSUE-5**

uchun “yashil” vositalar va yondashuvlarni qo’llash ustuvorligi; eng muhim tarmoqlarda raqobatbardoshlikni oshirish va ko’rsatkichlarni yaxshilash, “yashil” ish o’rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish; resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minalash. Shu munosabat bilan iqlim o’zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga yo’naltirilgan 2019 — 2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi.”

Xulosa:Barqaror rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirish sharoitida O’zbekistonning innovatsion, ekologik mo’ljal olgan rivojlanish modelining shakllari va mexanizmlarini rivojlantirish quyidagilarga asos lanishini talab qiladi: tabiatning alohida elementlarini muhofaza qilishdan umuman ekologik tizimlarni muhofaza qilishga o’tish; inson yashaydigan muhitning optimal parametrlarini kafolatlash; iqtisodiyot sohalarini “yashil iqtisodiyot” tamoyillari bo‘yicha rivojlantirish mexanizmlari bilan o’zaro aloqalarni uyg‘unlashtirish.

Foydalaniman adabiyotlar:

1. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Tashmatov Sh.A., Butaboyev M.T.. Yashil iqtisodiyot. Darslik. T.: Universitet, 2020, 156-bet
2. A. Stainer 2017, “The Green Shoots of the Green Economy”, Environmental Conservation, №2 vol 3 2019.
3. “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O’zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish” konsepsiysi
4. Brown L.R. Eco-Economy. Building an Economy for the Earth. Earth Policy Institute. W.W. Norton&Company. New York, London, 2019.
5. <https://www.project-syndicate.org/commentary/the-green>
6. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/ecology-2>
7. [www.uznature.uz](http://www.uznature.uz)